

## NEMIS TILIDAGI FRAZEOLOGIK ANTROPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

**Madraximova Sarvinoz Xasanboy Qizi**

*Urganch davlat pedagogika institutining*

*akademik litsey o'qituvchisi*

TEL: 97 130 95 91

**Annotatsiya:** Maqolada nemis tilidagi frazeologik antroponimlar va frazeologik birliklarni semantik, morfologik va etimologik jihatdan tahlil qilinib ma'lumot berilgan.

**Kalit so'zlar:** antroponim, frazeologizm, metafora, metanimiya

**Annotation:** The article provides information on the semantic, morphological, and etymological analysis of phraseological anthroponyms and phraseological units in the German language.

**Key words:** anthroponym, phraseologism, metaphor, metonymy

Nemis tili boy frazeologizmga ega bo'lib, lekin bunda frazeologik antroponimlar ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Frazeologik antroponimlarning semantik xususiyati deganda biz ularni ma'no jihatdan tahlil qilishimiz va ma'noviy xususiyatlarini yoritib berishimiz lozim. Frazeologik antroponimlarning semantik rang – barangligi, ma'no mazmun jihatidan bir biriga mos kelishi ham ularning alohida xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Nemis tilida frazeologik antroponimlar ko'pincha ma'no jihatdan bir biriga mos kelavermaydi, sababi shundaki frazeologizmlarda shaxs ismlari qo'llanganligi va bu ismlar orqali frazeologizmlarning ma'nosini tushunib olishimizdadir. Frazeologizmlarda qo'llangan antroponimlarda ularni eshitganda tasavvurda o'sha odam protatipi yaratiladi va ko'z o'ngimizda tasavvur hosil bo'ladi. Ushbu holat semantik xususiyatlarini ochib berishda katta yordam beradi. Frazeologik antroponimlarda ma'nolarning ko'chishi:

1. Metafora, nisbiy o'xshashlikka ega bo'lgan ikki predmetdan birining nomi bilan ikkinchisini ham atash hodisasidir. Misol qilib frazeologik antroponimlardan biri bo'lgan *David und Goliath (der Große und der Kleine)* bu yerda katta va kichik aniqlovchisini antroponim orqali berilgan. Yana bitta frazeologizmlardan biri *Krethi und Plethi (viele Leute verschiedenen Standes)* da ham ma'noni antroponim orqali tushintirib yoki ochib berilgan.

2. Metonimiya, narsa va hodislarning bir-biriga bog'liqligi asosida bir predmet nomi bilan ikkinchisini ifoda etishdir. Metonimiyada ikki predmet o'rtarida hech qanday o'xshashlik bo'lmaydi, lekin ular orasida bog'liqlik bo'ladi. Masalan, *falscher Wilhelm* (Perücke, unechtes Haar) (Perücke, unechtes Haar)

Frazeologizmlarning semantik xususiyatlardan yana biri shundan iboratki, birinchi holatda shaxs ismlari frazeologik birliklarning bir qismi sifatida qaraladi va onomastik holatda qoladi, ya'ni frazeologizmning ma'nosi shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, *alt wie Methusalem (sehr alt)* ushbu frazeologik antroponim qariya inoslarga nisbatan aytiladi. Ikkinchi holatda frazeologizmlar tarkibidagi antroponimlar onomastik xususiyatini yo'qotadi, masalan, *getreuer Eckart (alter, erfahrener Warner)*.

Ko'pchilik tilshunos olimlarning fikriga ko'ra frazeologizmlar tarkibidagi shaxs ismlari tilda aniq va mavhum kategoriyaga ega bo'ladi. Aniq kategoriyaning asosiy belgisi shundan iboratki, unda atovchi funksiya ustunlik qiladi va ism bitta shaxsni atab yoki nomlab keladi. Mavhumlik kategoriyasida esa ism bitta aniq denotatni emas, balki hayot tarzimizdagi mavjud bo'lgan guruhlar yoki jamoalar a'zolarini atab yoki nomlab keladi. Frazeologizmlar tarkibidagi ismlarning nimani yoki kimni aniqlashtirib kelayotganini berilgan matndan yoki aniq bir holatdan aniqlab olish mumkin.

Frazeologizmlar tarkibidagi ismlar bir necha funksiyalarga ega. Bular;

- Benennende Funktion (atovchi, nomlovchi funksiya)
- Charakterisierende Funktion (xarakterlovchi funksiya)
- Pronominale Funktion (olmoshlashish funksiyasi)
- Stilistische Funktion (stilistik funksiyasi)

Atovchi yoki nomlovchi funksiya, hozirgi vaqtdagi frazeologizmlarning kelib chiqishi, frazeologizm tarkibidagi ism egalari va o'sha tilda so'zlovchilar o'rtasidagi munosabatda aniq ko'rinadi, ya'ni so'zlashuvchilarga ism emas u anglatayotgan ma'no muhim hisoblanadi. O'sha vaqtdagi ismning kelib chiqish asosi yo'qolib, hozirda jins vakillarini ajratib, nomlab kelish uchun xizmat qiladi. Masalan, *dummer Hans – dumme Liese* yoki *Hans und Grete (Junge und Mädchen)* o'g'il bola yoki qiz bola ma'nolarida ushbu ismlar va frazeologik antroponimlar ishlatiladi.

Xarakterlovchi funksiya, hozirgi kunda ismlarning keng yoyilishiga sabab bir xil tarkibda joylashadi, ya'ni aniq va yakka tasvir yaratiladi, ism orqali aniq prototip hosil qilinadi va xususiyatlarni harakterlovchi shaxsga tegishli ramz hisoblanadi. Masalan, 'Konrad' ismi o'rta asrlarda paydo bo'lgan bo'lib "Bauer" (dehqon) degan ma'noni anglatadi, shu asosda frazeologik antroponimlar yaratiladi. XV asrda og'zaki nutqda "Hinz und Kunz" frazeologizmi 'Heinrich va Konrad' ismlarining qisqartmasidan kelib chiqqan va "har bir yoki barcha insonlar" degan ma'noni anglatadi.

Olmoshlanish funksiyasi, shunday ismlar borki chegarasiz denotatga tegishli bo'ladi, Frazeologizmlar tarkibida bunday ismlarning kelishi albatta tasoodifiy emas va ular bitta ism orqali ko'pchilikka qaratilgan bo'ladi. Masalan, "der deutsche Michel" frazeologik antroponimi tarkibida 'Michael' ismi qo'llanilgan bo'lib ko'p qo'yiladigan ismlardan biri

hisoblangan va “*tirishqoq, lekin tor peshonali nemis fuqarosi*” degan ma’noni anglatadi. “*eine junge Eva*” frazeologizmi tarkibidagi ‘Eva’ ismi *har bir ayol* degan ma’noda qo’llanilgan.

Stilistik funktsiya, frazeologik antroponimlar stilistik jihatdan qofiya va aleteratsiya hodisalari kuzatiladi, ya’ni “Krethi und Plethi” frazeologizmida qofiyani ko’rishimiz mumkin va “*har xil darajadagi ko’p odamlar*” degan ma’noni ifodalaydi. “*langer Laban*” ushbu frazeologizm tarkibida “L” undoshi takrorlanib aleteratsiya hodisasini vujudga keltirmoqda va “*kata va uzun bo’yli kishi*” ma’nosini ifodalamoqda.<sup>2</sup>

Tahlil natijasida shuni ko’rishimiz mumkinki, frazeologizm tarkibidagi ism asosiy ma’noni ochib beradi va boshqa frazeologizmlar kabi bir xil tuzilishga ega hisoblanadi. Ushbu tuzilishning asosiy xususiyatlari va frazeologizmga aylanish mexanizmi bilan bog’langan xolda frazeologik antroponimlar o’ziga xos ma’no va mazmun yaratadi.

Bundan tashqari frazeologik antroponimlar bir biriga sinonim bo’ladi. Sinonim bo’lishning sifati jihatdan to’rtta turini ajratib ko’rsatish mumkin.<sup>3</sup> Bular,

a) Frazeologik antroponim bitta so’zga sinonim bo’ladi: „*seinen Friedrich Wilhelm darunter setzen*“ – *unterschreiben*

b) Frazeologik antroponimlar, tarkibida antroponim qo’llanmagan frazeologizm bilan sinonim bo’ladi: „*arm wie Hiob*“ – „*arm wie eine Kirchenmaus*“ (**höchst arm**)

c) Ikkita frazeologik antroponimlar bir – biriga sinonim bo’ladi: “*für den Alten Fritzen*“ – „*von wegen Otto*“ (**vergeblich**)

d) Juda kam uchraydigan holatlardan biri bo’lgan bu guruhda, frazeologik antroponimlar, tarkibida geografik nomlar qo’llanadigan frazeologizmlar bilan sinonim bo’ladi: „*wie in Abrahams Schoß ruhen*“ – “*leben wie Gott in Frankreich*” (keine Sorge haben)

Ko’rganimizdek frazeologik antroponimlar frazeologizmlar orasida alohida ahamiyatga va o’z ma’nolariga ega hisoblanadi.

Frazeologik antroponimlar tarkibida qo’llaniladigan va ma’nosini ochib beruvchi ismlar va familiyalarga qarab ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- Xalq ismlari (Volkstümliche Namen)
- Injil kitobidagi ismlar (Biblische Namen)
- Antik davrga oid ismlar (Antike Namen)
- Qolgan ismlar (Restliche Namen)

<sup>2</sup> Földes C. Anthroponyme als Strukturkomponente deutscher Phraseologismen. Zeitschrift für germanistische Linguistik 15, Heft 1, 2009, S.15

<sup>3</sup> Földes C. Anthroponyme als Strukturkomponente deutscher Phraseologismen. Zeitschrift für germanistische Linguistik 15, Heft 1, 2009, S.16



Nemis tilidagi frazeologik antroponimlar ichida „Hans“, „Peter“, „Grete“, „Liese“ ismlariga frazeologizmlar ko'p uchraydi. Masalan „**Hans**“ ismiga quyidagi bir qancha misollarni keltirib o'tishimiz mumkin.

- **Hans** *Liederlich* (*liederlicher Mensch*),
- **Hans** *Ohnesorge* (*sorgloser, leichtsinniger Mensch*),
- **Hans** *im Glück* (*Glückspilz*),
- *der Blanke* **Hans** (*die stürmische Nordsee*),
- **Hans** *Taps* (*täppischer Bursche, Tölpel*),
- **Hans** *Urian* (*Teufel, Satan*),
- **Hanswurst** (*dummer Mensch, jdn, den man nicht ernst nehmen kann*),<sup>4</sup> va boshqa

frazeologizmlar uchraydi. „**Hans**“ ismi „**Johannes**“ ismidan kelib chiqqan bo'lib, XIV – XVII asrlarda keng tarqalgan erkaklar ismi bo'lgan. Shu sababli ham bu ismlar bilan ko'plab frazeologizmlar yaratilgan. Bu ismlar nemis xalq milliy ismlari hisoblanadi, shuning uchun bu ismlarga ko'plab frazeologizmlar uchraydi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki nemis tilidagi frazeologik antroponimlarning o'ziga xos semantik xolatlari mavjud.

---

<sup>4</sup> Földes C. Anthroponyme als Strukturkomponente deutscher Phraseologismen. Zeitschrift für germanistische Linguistik 15, Heft 1, 2009, S.9